

## YOZUVCHINING BAXTI, YOXUD O'TKIR HOSHIMOV SAMARALI IJODI

*Hamrayeva Madina Nodirbek qizi*

*ToshDO 'TAU, adabiyotshunoslik(o'zbek adabiyoti)*

*2-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. B. Karimov*

*Tel: +998909870071*

**Annotatsiya:** Xalqimiz sevgan adib o'tkir hoshimov sermahsul ijod qilgan mualliflardan sanaladi. Maqolada yozuvchining mana shu samarali ijod yo'li va bu yo'lida uchragan ba'zi to'siqlar haqida gap ketadi. Bundan tashqari maqolada muallifning ba'zi asarlari tahlili ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** yozuvchi, roman,qissa, obraz, nasr, adabiyot, badiiy asar.

**Annotation:** Utkir Hashimov, a writer beloved by our people, is one of the prolific authors. The article talks about the writer's path to effective creativity and some of the obstacles encountered on this path. In addition, the article also provides an analysis of some of the author's works.

**Key words:** writer, novel, short story, image, prose, literature, artistic work.

Yozuvchining hech kimga nasib qilmaydigan baxti bor. Bu – bir varoq oq qog'ozga dardini to'kib solish baxtidir<sup>1</sup>.

Elimiz suygan, ardoqli adibimiz O'tkir Hoshimov asarlari yozuvchining o'zi kabi ko'ngilga yaqin. Suyukli ijodkorimiz yillar davomida qimmatini yo'qotmaydigan asarlar yaratgan haqiqiy xalq yozuvchisidir. Uning romanlarini, qissalarini yoki hikoyalarini o'qir ekansiz, hech bir mantiqsizlikka, zamon va makon qonuniyatidagi uzilishlarga duch kelmaysiz. Sababi esa oddiy, O'tkir Hoshimov asarlari o'ta hayotiyligi, ayniqsa syujetdagi motivlarning aksariyatini o'z boshidan kechirganligi bilan ajralib turadi.

O'tkir Hoshimov asarlarida: roman, qissa, hikoyalarida so'z san'atining asosiy mavzusi, muammosi – inson taqdiri, uning qalb kechinmalarini badiiy tahlilga tortishda kata yutuqlarga erishgan edi. Ijod namunalaridagi personajlarning nafaqat portretini ichki olamini, tuyg'larini ham shuqadar mahorat bilan tasvirlaganki asarni o'qib turib kitobxon qahramonlarni xuddi yonida turgandek tasavvurga ega bo'ladi. Ya'ni ijodkor obrazlar ruhiyatidagi o'ta nafis jarayonlarni haqiqiy san'atkorona gavdalantirardi. "Muhabbat", "Cho'l havosi", "Nigora", "Shamollar esaveradi" kabi qissa hamda hikoyalari buninga yorqin misoldir.

Vaqt o'tgan sayin ijodkor dolzarb, ijtimoiy muammolar talqiniga e'tiborini ko'proq jalg qila boshladi va ayni paytda inson ruhiyati, ma'naviyati tahliliga yo'g'rilgan asarlar

<sup>1</sup> Hoshimov O'tkir. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.:Sharq, 2012. 223-bet.

ustida ham fikr yuritardi. Ayni shu yo‘nalishda yaratilgan “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Dunyoning ishlari” qissalari xalqning ko‘nglidan joy oldi va yozuvchiga katta muvaffaqiyat, shuhrat keltirdi.

Ijod olamida, adabiyot dunyosida “nasrdagi tarona”, “nasrdagi shoir” singari terminlar mavjud. Ma’limki, Abdulla Qodiriy XX asr adabiyotida haqli ravishda prozaning shoiri deya atalgan edi. 60-yillar zamонави о‘zbek adabiyotida esa O‘tkir Hoshimov asarlarini bamalol nasrdagi kuy, tarona ijodkorning o‘zini esa nasrdagi mahoratli shoir deb atashimiz mumkin. Dastlabki yaratgan qissasi “Cho‘l havosi” dan boshlab umri oxirida yaratgan asarlariga qadar – barchasiga xos umumiy, o‘xshash jihat shundaki, ular takrori yo‘q, sehrli ohang bilan bezatilgan. Ijodkor qalamidan tushayotgan so‘zlar go‘yoki go‘zal kuy singari kitobxonni mahliyo qilmay qolmaydi. Hatto keskinlik kuchli bo‘lgan ruhiy dramalarda ham, fojialar, qabihlig-u chirkinliklar haqida so‘z ketgandagi tasvirlarda ham yozuvchi nafislikni, nazokatni yo‘qotmaydi. Yozuvchi asarlarida samimiyl, hazin va yorqin bir tarona hamisha yangrab turadi. Bundan kelib chiqib ayta olamizki, adibni, uning ijod mahsullarini xalqqa, kitobxonga manzur qilgan jihatlaridan biri shu bo‘ladi.

“O‘tkir Hoshimov ijodga qadam qo‘yan yillarga kelib mustabid tuzum davridag‘dag‘a-yu zug‘umlari bir oz yumshagan, jamiyatni demokratlashtirish boshlangan, erkin fikrlarga qisman yo‘l berilgan edi. Biroq rasmiy doiralarda, “mo‘tabar” minbarlarda, ilm-fan, radio, televideniya, matbuotda bor haqiqatni aytish imkoniyati hamon cheklangandi. Bunday paytda jamiyatning vijdoni, mehnatkash xalqning ovozi bo‘lish vazifasi adabiyot, so‘z ustalarining zimmasiga tushdi. A. Qahhor, O. Yoqubov, P.Qodirov, ular izidan brogan E. Vohidov, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev chindan ham haqiqat,adolat jarchisi, xalq dilining tarjimoni sifatida maydonga chiqdilar. Ular yaratgan eng sara asarlar ijtimoiy tafakkur sohalari – tarix, falsafa, sotsiologiya, siyosat, adabiyotshunosik va publisistika bajarishi lozim bo‘lgan talay vazifalarni ham ado etdi. Shu tariqa adabiyotda “gap aytish ”, “masala ko‘tarish” tamoyili kuchaydi, “problematik she’r, doston”, problematik drama, hikoya, qissa, roman turlari paydo bo‘ldi. Ayni paytda didli, kuyinchak kitobxon asardan, albatta, “muhim gap” kutadigan bo‘lib qoldi, tanqidchilikda asarlarni ularda ko‘tarilgan dolzarb muammolarga qarab baholash muayyan udum tusini oldi.”<sup>2</sup>

Atoqli adibimiz O‘tkir Hoshimov ijodi mana shu yo‘ldan yurdi va ko‘plab qissa va hikoyalar dunyoga keldi. Ijodkorning “Teraklar yaproq yozdi”, “Nur borki, soya bor”, “Dehqonning bir kuni”, “Kvazarlar” singari hikoya, qissa hamda romanlari asarlardan “gap kutadigan” o‘quvchilarni nihoyatda hayajonga soldi. “Maktab bolalarining umri paxtazorda o‘tayotgani, dori sepilgan g‘o‘za bargidek erta xazon bo‘layotgani, yangi tushgan kelinchakning hayotidagi eng shirin daqiqalari erksiz og‘ir mehnat girdobida kechayotgani qishloqdagi, kasalxonadagi, savdo sohasidagi, oliy o‘quv yurtlaridagi,

---

<sup>2</sup> Umarali Normatov . Nasrdagi shoir yoxud ruhiyat manzillari. – T. Sharq haqiqati. 2021 .28-iyul.

tahririyatlardagiadolatsizlik, huquqbuzarlik va qing'irliliklar – O'tkir Hoshimov asarlarida hayajon, iztirob bilan qalamga olingan bu xil hayotiy muammolar talqini o'quvchilarining o'shanday ijtimoiy illatlarga nisbatan fikrini shakllantirishda, qahrini qo'zg'atishda muhim ahamiyat kasb etdi"<sup>3</sup>, - deydi mahoratli ijodkor Umarali Normatov.

O'tkir Hoshimovning deyarli har bir asari adabiy tanqid diqqatini o'ziga jalgilgan. Romanlari, hikoya va qissalari hamda, hatto maqolalari ham baxsli munozaralarga sabab bo'lgan. Ayniqsa, uning asarlari haqida Umarali Normatov eng ko'p maqola yozgan. Biroq bu tanqidchi yozuvchi asarlari haqida faqat ijobiy fikrlar bildirgan deb aytolmaymiz. Umarali Normatov "Nur borki soya bor" romani yozilganidan so'ng bu asar haqida "Ehtiroslar to'lqini" tanqidiy maqolasini chiqardi. Bundan so'ng "Ikki eshik orasi" asari haqida ham maqola yozib, romandagi badiiy tafakkurning nozik tomonlarini ishonarli tahlil qilib berdi. Umarali Normatov O'tkir Hoshimov ijodi, asarlari haqida juda ko'p maqolalar yozgan. Ammo tanqidchining "Kvazarlar" haqidagi tanqidiy maqolasi katta baxslarga sabab bo'lgan. Bu bilan aytmoqchimizki, O'tkir Hoshimov asarlari doim tanqidchilikka harakat, bahs, turtki olib kirgan. Yozuvchining xalq mehrini qozonishida katta o'rinn tutgan "Dunyoning ishlari" asariga Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov, Matyoqib Qo'shjonov, S. Mirvaliyev, N. Shukorov, B.Nazarov kabi mohir munaqqidlar yuksak baho berganlar. Biroq bir munaqqid bu asarda jiddiy muammo, ulkan va asosiy xarakter yo'qligini maqolasida yozib, birinchi Toshkentda, keyin Moskvada nashr qildiradi. Turli xil munosabatlarga qaramay bu asar xalqning haqiqiy e'tirofiga sazovor bo'ldi va adabiyotimizning umrboqiy asarlari qatoriga qo'shila oldi.

Adabiy tanqidiy asarlarga nisbatan O'tkir Hoshimovning o'z mulohazasi, qarashi, e'tiqodi bor. "Taqnid yong'oqqa o'xshaydi,- deydi yozuvchi. – Mag'zi to'q mazali bo'lsa, mazza qilib yeyman. Puch, yopishqoq bo'lsa, tupurib tashlayman"<sup>4</sup>.

Yozuvchi ijodini, yaratgan asarlarini tanqidchilar e'tiborini tortish sabablari haqida gapirsak, yozuvchi asarlarini na jiddiy muammo, na yirik xarakter, na dolzarb mavzu ulug'lab, xalqqa tanitmaydi. Badiiy asarda shunday eskirmaydiganyangilik bo'ladiki, o'sha asos kitobxon diqqatini jalgiladi. Eskirmaydigan yangilik, aslida, tabiiylik, samimiylilik, inson va olam o'rtasidagi aloqalarning yangi, nozik tomonlarini mohirona tasvirlashdir.

"Otkir Hoshimovning asarlaridagi badiiylikni men ko'klamning ilk maysalarida, qo'ng'irog'ini chalib bosh ko'targan chuchmomalarida, "tilla tugma" – qoqi o'tlarda, qabriston sokinligida, Qonqus arig'inining mungli qo'shig'ida ko'raman"<sup>5</sup>, - deb yozadi Abdug'afur Rasulov adib haqida xotirlab.

Adibning barcha asarlarida bot-bot takrorlanadigan joy nomlari kitobxonni

<sup>3</sup> Umarali Normatov . Nasrdagi shoir yoxud ruhiyat manzillari. – T. Sharq haqiqati. 2021 28-iyul.

<sup>4</sup> O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Sharq. 2012. 242-bet.

<sup>5</sup> Abdug'afur Rasulov. Ardoqlı adib. – T.,Sharq. 2001. 63-bet.

e'tiborini tortmay qolmaydi. Do'mbirobot, Alvasti ko'prik, No'g'ayqo'rg'on, Qozirobod, Bo'rijar, Ko'tarma, Qonqus, Yangi mahalla singari joy nomlari shular jumlasidandir. Yozuvchi nega bu joylarni asarlarida tez-tez takrorlagan degan savol tug'ilishi tabiiydir. Sababi O'tkir Hoshimov bu yerlarda tug'ilib, o'sgan, umri shu mavzelar orasida o'tgan. Ushbu joylar yozuvchiga juda qadrdon. Bu ijodkorning asarlariga o'z biografiyasining asosiy ta'sirlaridan biridir.

O'tkir Hoshimov olam ichra o'z adabiy olamini yaratayotgan mahoratli adiblarimizdan biridir. Uning yaratgan har bir asari betakror va o'ziga xosdir. Yozuvchining yaratgan har bir asari unga farzandi kabi aziz, qalbiga yaqin, ular haqida soatlab gapireshi mumkin. Farzandlar doim mukammal va bir xil bo'limganidek yozuvchi yaratgan asarlarining hammasi ham yuksak saviyada bo'lmaydi. Masalan "Shamollar esaveradi" va "Bahor qaytmaydi" ning, "Odamlar nima derkin" hamda "Dunyoning ishlari" ning og'rligini taroziga tortsak pallalari teng bo'lmaydi. Yoki "Vijdon dorisi" bilan "Tushda kechgan umrlar"ni, "Kvazarlar" bilan "Ikki eshik orasi"ni tenglashtirishning iloji yo'q. "Qalbning oppoq daftari", "Davlat siri", "Mardlik" kabi maqolalarining zalvori uncha-muncha roman va qissanikidan kam emas.

Adibning "Tushda kechgan umrlar" asarini o'qir ekansiz qalbingiz larzaga keladi, yuragingiz titraydi. Asarda o'z davrida e'tiqod qo'ygan, ishongan sovet tuzumining barbod bo'lishi, butun hayotini shu tuzumga bag'ishlagan shu tuzum uchun xizmat qilganlari sarob bolib chiqishi mahorat bilan tasvirlangan. Romanda mustabid tuzumining haqiqiy chirkin qiyofasi ohib berilgan. "Tushda kechgan umrlar" Mustaqillik sharofati sabab yozilgan katta asardir. Bunday deyishimizga sabab O'tkir hoshimov insonlar xarakterini yoritishda o'zini umuman cheklamadi. Sobiq sho'ro davrida esa bu mumkin emas edi, asarlarda faqat ijtimoiy mavzular yoritilishi kerak edi. Yozuvchi 20-yillar adabiyotida ko'klarga ko'tarilgan hukumat va partiyaning suyangan tog'i – komissarni salbiy obraz sifatida tasvirlaydi. Komissar xarakterida Sho'ro tuzumi tarbiyalagan barcha xususiyatlar yoritigan. Komissar Soat G'aniyevich millat degan tushunchani sira tan olmaydi. Vijdonli, e'tiqodi baland, iymonli insonlar uning dushmani edi. Soat G'aniyevich deyarli har bir gapida din odamini, iymonli insonlarni haqorat qilardi. Atrofidagi barcha odamdan, hatto oilasi, rafiqasi, bolasidan ham shubha qiladigan odam edi u.

"Tushda kechgan umrlar" asaridagi voqealar yozuvchi tug'ilib katta bo'lgan, bolaligi o'tgan Do'mbirobot, Ko'tarma, Qatortol mavzelarida ro'y beradi. romanda ayniqsa yozuvchiga qadrdon bo'lgan Qonqus arig'inining mukammal, murakkab timsoli yaratilgan: "Soat jahl bilan ko'ylagini yechib, o'rik shoxiga ildi-da, qonqusga kalla tashladi. Suv sovuq edi. Sho'ng'ib chiqib, oqimga qarshi suza boshladı.... Ilgari oqimga qarshi hech suzmagan ekan. Qanaqa anhor o'zi bu la'nati? Yuzasi qilt etmaydi. Hovuzga o'xshab jimirlab turibdi-yu, tagi shiddat bilan oqadi. U oldinga intiladi, suv orqaga

tortadi!”<sup>6</sup>.

“Tushda kechgan umrlar” asari obrazlari o‘ta jonli tasvirlangan. Asarni o‘qir ekansiz qahramonlar, huddi tirikdek, ko‘z oldingizda gavdalanadi. Ma’lum bo‘lishicha, romandagi qahramonlarning ayrimlarini yozuvchi hayotiy prototiplar asosida yaratgan. Masalan Qurbonoy xola obrazi O‘tkir Hoshimovning amakivachchasi Shukrullaxon taqdiridan olib yozilgan. Bu haqda ustoz Abdug‘afur Rasulov shunday degandilar: “2000-yil 28-martda bo‘lgan voqeа sira esimdan chiqmaydi. Professor Shukrulla Nosirov janozasida O‘tkir Hoshimov bilan yonma-yon turgan edik.

– Abdug‘afur aka, romandagi Qurbonoy xola mana shu... Shukurxon aka edilar – dedi O‘tkir Hoshimov.

Birgina shu gap hayolimni ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi”<sup>7</sup>.

Asar yozilishi haqida yozuvchining o‘zi quyidagicha xotirlaydi. “Afg‘ondan kelgan ko‘p yigitlar bilan suhbatlashdim. Daxshatli voqealar tushda kechgandek edi go‘yo. 75 yillik davr shunaqa daxshatli bo‘ldiku, axir. Hamma narsa tayyor, yozishim kerak, lekin yozolmayapman. Ikki yil o‘ylab yurganman, biroq yozishga o‘tira olmayapman. Oktabr oyining oxirlari, kech kuz payti edi. Tobim qochib qoldi va kasalxonaga bordim. U yerning uchinchi qavati balkonida turgandim. Shunda ro‘paramdagi daraxtdan bitta xazon uchib keldi va oyog‘imni tagiga qo‘ndi. Bosgan edim, qisir-qisir etib maydalanib ketdi. O‘shanda romanning birinchi jumlesi tug‘ildi. “Kuz o‘lim to‘shagida yotgan bemorga o‘xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi”<sup>8</sup>. Tamom. Manashu romanning musiqasi. Har bitta asarning shu kabi musiqasi bo‘ladi va birinchi musiqasi tug‘iladi, keyin asar yoziladi”.

Asardagi bosh qahramonlar: Rustam, uning otasi, Komissar Soat G‘aniyev, Qurbonoy xolalarning hayoti go‘yo tushdagidek ma’nisz va alg‘ov-dalg‘ov o‘tadi. Rustam urush xotiralaridan qutula olmadi. U o‘zi yaxshi ko‘rgan qizga, Shahnozaga, uylanadi. Ular bir-birini qattiq sevsə ham baxtli bo‘la olishmaydi. Bunga sabab esa afg‘on urushining salbiy ta’siri edi. Urushdan qaytaganidan so‘ng uchragan nohaqliklari, adolatsizliklari, ayolinin baxtsizligiga o‘zini sababchi deb bilishi uning fojiali o‘limiga sabab bo‘ladi.

Yozuvchining ustozi Said Ahmad asarga quyidagicha baho beradi. “Romanni loqayd hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi, u kitobxonni larzaga soladi, xalq boshiga kulfatdan boshqani solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg‘ish yog‘diradi”<sup>9</sup>.

Romandan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, daxshatli afg‘on urushi insonlar boshiga ko‘plab kulfatlarni soldi. Sho‘ro tuzumining qatag‘on siyosati esa undan ham oshib tushdi. Buning asosiy sababi esa, erksizlik, mustamlakachilik edi. Xalq mustaqil,

<sup>6</sup> O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – . T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashr., 2008. 18-b

<sup>7</sup> Abdug‘afur Rasulov. Ardoqli adib. – T., Sharq. 2001. 114-bet.

<sup>8</sup> O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashr., 2008. 3-b

<sup>9</sup> Said Ahmad. “Tushda kechgan umrlar” asari haqida fikrlari.

erkin bo‘lsa, bosqinchilar uni istagan ko‘yiga sola olmaydi, boshqara olmaydi.

Adib o‘zi bilmagan mavzuni, mohiyatini anglamagan masalani qalamga olmadi. O‘z qahramonlarini holisona, tirik, hayotiy, jonli odam sifatida tasvirladi. Ularning qanday inson ekanligini zohiriylashtirish emas botiniy yoritdi. Ya’ni ruhiy olamini muhit, davr bilan birgalikda, kata falsafiy mushohada asosida teran tahlil qlldi. Aynan shu sifatlar bilan adibning “Bahor qaytmaydi” qissasi dunyoga keldi. Keyinchalik mazkur qissa asosida teleserial yaratildi.

Millionlab insonlarning qalbidan joy olgan bu asar ijodkorga xos mohirona uslub bilan yozilgan. Asarda Alloh tomonida berilgan iste’dod, iqtidorni qadrlamagan, ulug‘ maqsadlardan ko‘ra nafsi ustun qo‘ygan, nafs yo‘lida tubanlashgan, xudbin yigitning ruhiy-ma’naviy inqirozi mohirona tasvirlangan. Asarni o‘qir ekansiz, yozuvchining qalb nolalari, iztirobli kechinmalari, hayajon va zavqqa to‘la tuyg‘ulari nafasini his qilasiz. Asar bosh qahramonlari Alimardon, Muqaddam, Anvarlarning har birining o‘z xarakteri, o‘z dunyoqarashi o‘y-hayollari shu darajada aniq va mukammal tasvirlanganki, go‘yo asar jonlangandek va haqiqiy hayotda yuz berayotgandek tuyuladi kishiga. Shu sababdan ham o‘tgan asrning 70-yillarida bu asar yozuvchining tashrifqog‘oziga aylangandi desak yolg‘on bolmas. Qissada adib biografiyasiga bog‘liq jihatlarni ham uchratamiz. Masalan, asarda yozuvchi tug‘ilib, o‘sgan “Yangi Mahalla” nomi ko‘p marotaba takrorlangan. Asar bosh obrazlari Alimardon, Muqaddam va Anvar asli Yangi mahallalik. Muqaddamning ota-onasi, Anvarning oilasi hamon o‘sha yerda yashashadi. Yozuvchi bu joyni tasvirlar ekan, muqaddas bir maskan, nurli odamlar haqida yozayotganini sezib turadi. Alimardon kibriligi, xudbinligi sabali oilasidan ayrilgach, atrofdagilaridan chetga chiqib qolayotganini sezgach, o‘zi xiyonat qilgan, sobiq do‘sti Anvarnikiga bosh egib boradi: “Alimardon Anvarning Yangi Mahalladagi shahar hovlisiga … boshi og‘ib kelib qoldi, ammo endi bari bir Anvarning oldida bosh egishga majbur bo‘lganini o‘ylab, ich-ichidan ezila boshladi”<sup>10</sup>. Anvar do‘sti Alimardonni ergashtirib Muqaddamning hovlisiga keladi. U xiyonatkor do‘sti uchun bosh egib, Muqaddamning otasidan uzr so‘rash uchun uning yoniga kirib keladi. Asarda Alimardonning mana shu paytdagi ichki ruhiy holati juda chiroyli yozilgan. Muqaddam hovlisidan chiqib kelgan Anvari shunday tasvirlaydi: “Uzoqdan Anvarning oq ko‘ylagi ko‘rindi. U yolg‘iz o‘zi kelar, hech qayoqqa qaramay yelkasini og‘ir yuk bosgan odamday og‘ir-og‘ir qadam bosardi… Anvar uning yoniga og‘ir cho‘kdi-da indamay o‘tiraverdi: Alimardonni qorong‘ilikda uning rangi o‘chib ketganini, ko‘zlarida tubsiz bir g‘ussa borligini sezdi.

Mashina bir sapchib yelib ketdi… Hozirgina suv sepib o‘tilgan kata ko‘chaga chiqib olinganidan keyin Anvar unga qarab qo‘ydi.

– To‘xtat mashinangni! – dedi ovozi xirillab.

---

<sup>10</sup> O‘tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi/Muhabbat qissalari. . T., “O‘qituvchi”, 2018.113-bet

... Muqaddam qishloqqa ketibdi, - dedi u ovozi qaltirab – Butunlay ketibdi! – u boyadan beri bo‘g‘ziga tinqilib turgan gapni aytdi: - Sening shunchalik xaromligingni bilganimda bu yerga kelmasdim! Xayf senga otalik!”<sup>11</sup>.

O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasi ko‘pchilik san’atkorlar hayotida ham unitilmas xotiralar qoldirdi. “Bahor qaytmaydi” videofilmini yozuvchining ijodiy hamkori Mirabbos Mirzaahmedov suratga oldi. Bosh qahramon Alimardon To‘rayev obrazini muallifning tengdoshi mahoratli aktyor Lutfilla Sa’dullayev yaratdi. Filmda mashhur bo‘lgan “Ketmoqdaman” taronasini Hojiakbar Hamidov qoyilmaqom qilib ijro etdi. U O‘tkir Hoshimovning sinfdoshining ukasi va adibning ashaddiy muxlisi ekanligi bizga keyin ayon bo‘ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hoshimov O‘tkir. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.:Sharq, 2012. 223-bet.
2. O‘tkir Hoshimov. Bahor Qaytmaydi/Muhabbat qissalari. T., “O‘qituvchi”, 2018.114-bet
3. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – . T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashr., 2008. 18-b
4. Abdug‘afur Rasulov. Ardoqli adib. – T.,Sharq. 2001. 114-bet.
5. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashr., 2008. 3-b

---

<sup>11</sup> O’tkir Hoshimov. Bahor Qaytmaydi/Muhabbat qissalari. T., “O‘qituvchi”, 2018.114-bet